

**PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING
OILA TARBIYASIGA OID FIKRLARI VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI
TARBIYA JARAYONIDAGI AHAMIYATI**

Ismatillayeva Mahliyo Muzaffar qizi

“Profi University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi

Navoiy filiali Pedagogika fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada sharqona tarbiyani amalga oshirishda oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi haqida ibratli maslahatlar, tarbiya, axloq, odob masalalarida buyuk allomalarimizning tarbiyaviy fikrlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: oila, ota-ona, farzand, tarbiya, axloq, odob, er-xotin, farzand tarbiyasi, oilada shaxslararo munosabat.

Shaxs ma’naviyati dastlab oila sharoitida shakllanadi va jamiyat ma’naviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo’ladi. Shu boisdan, madaniy merosdan, bugungi kun qadryatlaridan to’g’ri foydalana olish, tarixdan to’g’ri xulosa chiqarish, ma’naviy qadryatlariga, diniga va axloqiga tanqidi ko’z bilan qaray olish – mustaqillikni mustahkamlashning muhim ma’naviy asosidir. Mana shu ma’naviy meros har bir ota-ona, oilaga kirib borsagina oila ma’naviyati qaror topishi tabiiydir.

Mamlakatimiz mustaqillikga erishgandan buyon buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy-ma’naviy merosni o’rganish va qayta tiklashga musharraf bo’lmoqda. Fan va madaniyat namoyondalarining asarlarida ifodalangan ma’naviy-axloqiy g’oyalar insonlar ruhiyati va ma’naviyati taraqqiyotida, ayniqsa yoshlarda ezgulik tuyg’usining rivoj topishida muhim vosita bo’la oladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Biz ajdodlarimizning donishmandlik an’alariga amal qilib, ularning g’oyalarini anglagan holda qat’iy islohatlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo’lidan bormoqdamiz”[1] deya ta’kidlashlarining o’zi bizning o’tmish madaniy merosidan har javhada keng foydalanishimizdan dalolat beradi.

O’zbek xalqi qadimdan oila tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan. Oila tarbiyasi masalalari Sharq mutafakkirlarining shaxsga ta’lim berish, unda ijobiy sifatlarni shakllantirish borasidagi qarashlarining muhim unsuri sanaladi.

Markaziy Osiyoda qadimdan oila va oilaviy munosabatlar oila a’zolariga g’amxo’rlik qilish, ularga mehr-shafqat ko’rsatish, xayr-saxovat qilish diniy, ham insoniy udum bo’lib kelgan. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy, falsafiy va axloqiy qarashlarida oila va oilaviy munosabatlar, oilaviy tarbiya, oilaviy totuvlik kabi g’oyalar ma’suliyati va burchi, farzandga nisbatan hurmat, farzandning ota –

onaga nisbatan hurmati kabi masalalarga alohida e'tibor berilgan¹. Oila nafaqat bir yurtning, balki umumiy insoniyatning va davlatning katta siyosatidir. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri insoniyatning zanjirini sog'lom va iqtidorli avlodlar bilan ulab borishdan iborat. Har bir inson hayotining o'ziga xosligi va qadriyatlarni tan olishi, ma'naviy komil inson bo'lib voyaga yetishi, bolaning rivojlanish huquqlari, ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishini kafolatlash kabi insonparvarlik g'oyalari zamonaviy jamiyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim ekanligi tobora keng anglanmoqda.

IX asr Sharq Uyg'onish davrining buyuk arbobi Abu Rayhon Beruniy inson tabiatining eng avvalo oila muhitida shakllanishini alohida qayd etib o'tgan. Alloma ota-onalarga bola ruhiyatini mo'tadil saqlashni tavsiya etadi. Bola ruhiyatini mo'tadil saqlash uni qattiq g'azablanish, qo'rqish, xafalik, jismoniy toliqish hamda uyqusizlikdan muhofazalash orqali ta'minlanishini aytadi. Shuningdek ota-onalarni bolalar xohlagan va ular uchun foydali bo'lgan narsasini topishga, ularni imkon qadar yoqtirmagan narsalaridan uzoqlashtirishga undaydi. "Bu ishning ikki xil foydasi bor.

Bir tomondan bolaning ruhiyatiga ta'sir qiladi, bola eng yosh chog'danoq xushxulq bo'lib o'sadi va bora – bora xushxulqlilik unga odat bo'lib qoladi. Ikkinchi tomondan bolaning tanasiga foyda qiladi, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlarida sodir bo'ladi. Shuningdek, yomon xulq odatga aylanib ketse u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, g'azab kuchni qizdiradi, qayg'u kuchni ozdiradi, xafalik bag'amlikka moyil bo'ladi. Xulqning mo'tadilligi natijasida ham nasf, ham badan sog'lom bo'ladi"[2],- deydi olim. Allomaning qayd etishicha, ota-onalar bolaga nisbatan bir xil munosabatda bo'lishlari uni to'g'ri tarbiyalash uchun nihoyatda ahamiyatli. Ota-onaning bolaga nisbatan turlicha munosabatda bo'lishlari uning xulqiga salbiy odatlar namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratib beradi.

Abu Rayhon Beruniy bola xulq-atvorining mo'tadilligi uning jismonan va ruhiy sog'lomligi uchun muhim asos ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, alloma o'z asarlarida bolaning kamolga etishida irsiyat, ijtimoiy muhit va tarbiyaning birdek ta'sirga egaligini alohida ta'kidlab o'tgan.

Oilaviy tarbiya masalalariga oid o'zining diqqatga sazovor qarashlaridan bilan ajralib turuvchi mutafakkirlardan biri Abu Ali Ibn Sinodir. Allomaning "Tadbiri al-manozil" nomli asarining alohida bobi oila tarbiyasini samarali tashkil etish masalalariga bag'ishlangan. Mutafakkir o'zining tibbiyotga oid bilim va hayotiy tajribalariga asoslangan holda "Tadbiri al-manozil" asarida "Alla" qo'shig'ining bolani ruhiy va jismoniy kamolotga etishida muhim ahamiyatga ega omillardan biri sifatida e'tirof etadi. Abu Ali ibn Sino "Alla" qo'shig'i ikki muhim vazifaning hal qilinishini ta'minlaydi. Birinchidan, bolani tebratish unga jismoniy orom bag'ishlaydi; ikkinchidan, beshikning bir maromda tebranishidan onaning mehri jo'sh uradi, farzandiga bo'lgan muhabbatdan onaning yuragida orzu, umidlar uyg'onadi. Sehrli,

jozibali qo'shiq bolasi uchun qasida kabi yangraydi va farzandining murg'ak qalbiga singib boradi. Shu tarzda bolada u hali anglamagan holat paydo bo'ladi, asta-sekin borliqni anglay boshlaydi. Borliqning bu tarzda dastlabki anglanishi o'rganishning ilk bosqichidir. Bu bosqichda o'rganish asosida bola shaxsi shakllanib boradi. Alloma o'rganishning sezgiga asoslanishini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Qolaversa, Abu Ali Ibn Sinoning yosh bolaning sezgirlik quvvati katta yoshli kishining sezgirligiga teng degan fikrni ilgari surgan.

Alloma bolani sekin-sekin tebratish va unga ohang yordamida alla aytish bola mijozining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi: "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab, bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil bo'ladi"[3]

Ibn Sinoning yondashuviga ko'ra, bola tarbiyasida oila boshlig'i sifatida ota alohida rol o'ynaydi: "Agar oilada oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa, u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda bundan yomon natijalar kelib chiqishi mumkin". Bola tarbiyasi samarali yo'lga qo'yilgan oilalargina baxtli bo'ladi. Zero, oilaning eng muhim vazifasi bolani har jihatdan to'g'ri kamolotga etkazishdir. Ota-ona kim bo'lishidan qat'iy nazar ushbu ma'suliyatli vazifani to'la-to'kis ado etishi lozim.

Ibn Sinoning bola tarbiyasiga qo'ygan ushbu talablari o'sha davrda qanchalik taraqqiyparvar va zarur bo'lsa, bizning bugungi kunimizda ham u o'z kuchini yo'qotmagan. Uning fikricha, tarbiyachi, ya'ni ota-ona «nafaqat so'z bilan, balki amalda ham bola ruhiga ta'sir ko'rsatmog'i lozim.

Ibn Sinoning sevgi-muhabbat va er-xotin munosabatlari borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir, «Eng yuksak sevgi deb, ta'kidlaydi u, - bu insoniy sevgi bo'lib, bunday sevgi kishini saxovatli qiladi, uni oq ko'ngil va jozibali kishiga aylantiradi». Allomaning fikricha, sevgi inson zimmasiga juda katta axloqiy va huquqiy ma'suliyat yuklaydi. U inson baxtining negizi, deganda oshiqlik emas, balki oshiq-mashuqlikni tushunadi. Oshiq-ma'shuqlik bilan turmush qurish oila mustahkamligining asosi sifatida ta'kidlanadi. Turmush qurgan er-xotinlar munosabati borasida esa mutafakkir, «Erkak kishi oila boshlig'idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog'i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir», — deb yozadi. Ayol esa erkakning munosib yo'ldoshi, u bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchidir. Uning er-xotin munosabatlarixususidagi fikrlari ham o'sha davr uchun o'ta ilg'or va ahamiyatli edi. Mutafakkir o'zining "Oila xo'jaligi" kitobida ayollar axloqan eng maqbul, yuqori sifatlargaega bo'lmoqlari lozim, deb yozadi, shu kitobning "Ayollarning yaxshi fazilatleri haqida" bo'limida ularning quyidagi fazilatleri ta'kidlanadi: "Ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo'lib, ko'p gapirmasligi lozim: u eriga bo'ysunmog'i, uni sevmog'i, farzandlar tug'ib, doimo halol, pok, to'g'ri so'z, kamtar bo'lishi kerak, o'z

iffatini va obro'sini to'kmasligi lozim; u hech qachon eriga nisbatan dimog'dorlik, viqor hissini ko'rsatmasiligi, o'z ishlarini yaxshi, o'z vaqtida bajarib oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog'i lozim; o'z xulq-atvori bilan o'z reining qalbida hadiksirash hissiga o'rin qoldirmasligi kerak”

Mutafakkir er-xotinning bir-birlariga bo'lgan munosabatlari, bir-birlarini hurmat qilishlari bola axloqining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydi. Buning uchun ota-onaning har biri oilada ma'lum vazifalarni bajarishi zarur. Xususan, erkak kishi, asosan, oilaning ta'minotini yaratishi, ayol kishi esa oila boshlig'i topib kelgan mablag', moddiy ne'matlarni tejab-tergashi, uy-joylarni saranjom-sarishtaligini ta'minlashi, farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanishi zarur.

Ibn Sino bola tarbiyasiga oid o'z fikr va mulohazalarni bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'yishdan boshlashni lozim topadi hamda bolalarga yaxshi ism tanlashni ota-onaning dastlabki olijanob vazifalaridan hisoblaydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda ma'naviy-axloqiy muhit yuksalib, milliy qadriyatlar, urf-odalar, milliy tarbiyamizga tayangan holda jamiyatda o'zligini va o'z qobiliyatini har tomonlama namoyish eta oladigan, ma'rifatli, aqlan yetuk, jismonan sog'lom, axloqan pok shaxsni tarbiyalash bugungi ta'lim tarbiya muassasalarining asosiy va muhim vazifasi bo'lib qolishi zarur.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutiq.-T.: O'zbekiston,2017.-184-b
2. Musurmonova.O “Oila manaviyati-milliy g'urur”. Toshkent, 1999
3. “Buyuk yurt allomalari” U.Uvatov.-T.: “O'zbekiston” NMIU,2018.-424-b
4. H.Abdukarimov, Ya.Nurumbekova. Oila pedagogikasi G' O'quv-uslubiy majmua. – Guliston: 2017. – 269 bet